

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

USMANOVA AZIZA ALISHEROVNA

**O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA FISKAL
INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2024-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Content of the dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

**Содержание автореферата диссертации доктора философии по
экономическим наукам (PhD)**

Usmanova Aziza Alisherovna

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda fiskal instrumentlardan foydalanish
istiqbollari. 5

Usmanova Aziza Alisherovna

Prospects of Using Fiscal Instruments for Poverty Reduction in Uzbekistan. 29

Усманова Азиза Алишеровна

Перспективы применения фискальных инструментов в сокращении бедности
в Узбекистане 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ. 58

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

USMANOVA AZIZA ALISHEROVNA

**O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA FISKAL
INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2024-yil

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2022.2.PhD/Iqt2214 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.tiu.uz) va «Ziyonet» ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Raxmonov Dilshodjon Alidjonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Kadirova Xadicha Turayevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elmirzayev Samariddin Eshkuvatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Xalqaro Nordik universiteti

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi DSc.22/29.12.2023.I.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "7" 12 kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (19 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «22» 11 kuni tarqatildi.
(2024-yil «18» 10 dagi 16 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.X. Jumayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.T. Absalamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

A.R. Norov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda kambag‘allik global muammolardan biri hisoblanadi. Jahon bankining ma’lumotlariga binoan dunyo aholisining 8,6 foizi yoki 691 million kishi hozirda kambag‘allikda yashamoqda¹. 2030-yilga borib 575 million kishi kambag‘allikda kun kechirishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan prognoz qilinmoqda². Kambag‘allikni qisqartirish maqsadida dunyo miqyosida katta ishlar olib borilmoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti o‘zining Barqaror rivojlanish maqsadlarida har yerda kambag‘allikning barcha ko‘rinishlariga barham berishni birinchi maqsad qilib belgilagan³. Kambag‘allikka qarshi kurashish iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy jihatlarini o‘z ichiga olgan kompleks chora-tadbirlarni talab qiladi. Bu jihatlar orasida kambag‘allikka barham berishda hukumatning fiskal siyosati muhim o‘rin egallaydi. Davlatlar fiskal siyosatidan mamlakatning kuchli va barqaror iqtisodiy o‘rinishini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish uchun foydalanishadi⁴. Bu esa kambag‘allikni qisqartirishda fiskal instrumentlardan foydalanishni takomillashtirishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Jahonda fiskal siyosat orqali kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan bir qancha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlarning samaradorligi hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga bog‘liq. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish kun tartibidan kelib chiqib, mamlakatlar o‘zlarining barqaror rivojlanish milliy dasturlarini ishlab chiqmoqdalar. Kambag‘allikka qarshi kurashishning muvaffaqiyatli namunasi sifatida Xitoy Xalq Respublikasi xizmat qilishi mumkin. Xitoyda qirq yil ichida 800 milliondan ortiq odam kambag‘allikdan chiqarildi, bu jahon tarixidagi eng katta ko‘rsatkich hisoblanadi. Xitoyda kambag‘allikka qarshi siyosat quyidagi beshta asosiy yo‘nalishlarga asoslangan holda amalga oshirildi: mahalliy boshqaruv, inson kapitali, sanoat rivoji, madaniyatning rivoji va ekologiyaga e’tibor. Shuningdek, fiskal siyosat ham Xitoyda kambag‘allikni qisqartirishda muhim rol o‘ynagan⁵. Kambag‘allikka qarshi kurashish uchun kambag‘allikning mohiyatini hamda unga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlab olish va shunga mos ravishda fiskal siyosatni takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni tadqiq qilish masalalari bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

O‘zbekistonda bugungi kunda kambag‘allikka barqaror rivojlanishning asosiy to‘sig‘i sifatida qaralmoqda va u hukumat diqqat markazida. Kambag‘allikni kamaytirishga Prezident Sh. Mirziyoyev quyidagicha ta’rif bergan: “Kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, kasbga tayyorlash va ish o‘rinlarini ko‘paytirishga qaratilgan kompleks vazifadir”⁶. Shundan kelib chiqqan holda, kambag‘allikni qisqartirish uchun fiskal siyosatga tayanch yo‘nalish sifatida

¹ <https://blogs.worldbank.org/en/opendata/poverty-back-pre-covid-levels-globally-not-low-income-countries>

² <https://www.un.org/en/global-issues/ending-poverty>

³ UN General Assembly (UNGA). A/RES/70/1 Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. Resolut 25, 1–35 (2015).

⁴ <https://www.imf.org/en/Publications/fandd/issues/Series/Back-to-Basics/Fiscal-Policy>

⁵ <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2022/04/01/lifting-800-million-people-out-of-poverty-new-report-looks-at-lessons-from-china-s-experience>

⁶ <https://president.uz/oz/lists/view/6313>

e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Kambag'allikdan farovonlik sari" davlat dasturida "hududlarda aholi turmush shart-sharoitini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarining natijadorligiga erishishda yangicha yondashuv va to'plangan milliy tajribani qo'llash chora-tadbirlarini yanada yuqori bosqichga olib chiqish"⁷ muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan. Bu, o'z navbatida, kambag'allikni bartaraf etishda iqtisodiy o'sish, fiskal siyosat, biznes va bandlikni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni taklif etilishini taqozo qiladi. Shuningdek, mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishda fiskal instrumentlarning va moliyaviy siyosatning ta'sirini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Mazkur ilmiy tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2024-yil 23-sentabrdagi PF-143-son "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi PQ-347-son "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" deb nomlangan strategik mavzularining ustuvorligiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda kambag'allikni tadqiq qilish va qisqartirish muhim maqsadlardan biridir. Shu sababli mazkur dissertatsiyada jahon iqtisodchilari bilan bir qatorda mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlari o'rganilgan.

Kambag'allikning nazariy asosi Rowntree tomonidan ishlab chiqilgan, u kambag'allik chegarasini insonning minimal jismoniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan pul miqdori sifatida ta'riflagan. Townsend, o'z navbatida, kambag'allikni jamiyatda an'anaviy turmush darajasiga rioya qilish uchun resurslarning yetishmasligi deb ta'riflagan⁸. Deaton, Sen, Yunus, Banerji, Dyuflo va Kremer kambag'allikni tushunishga qo'shgan hissalarini uchun iqtisodiyot sohasida Nobel mukofotiga sazovor bo'lishgan. Shuningdek, dissertatsiyada ko'p o'lchovli kambag'allik indeksini ishlab chiquvchilar sifatida Alkire va Fosterning ishlari ham o'rganilgan⁹.

Bundan tashqari, Lustig, Enami, Taqdiri, Destek, Sinha, Sarkodie, Anderson, Tanjung, Song, Jouini, de Mendonça, Ferreira, Cabrera Baca tomonidan olib

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi 143-sonli Farmoni, 23.09.2024.

⁸ Veit-Wilson, J. (1986). Paradigms of Poverty: A Rehabilitation of B.S. Rowntree. *Journal of Social Policy*, 15(1), 69-99. doi:10.1017/S0047279400023114

⁹ Alkire, Sabina, et al. "Multidimensional poverty index 2011: brief methodological note". (2011).

borilgan tadqiqotlar moliyaviy siyosatning kambag'allikka ta'sirini tadqiq qilishga qaratilgan¹⁰. Razmi, Garza-Rodriguez, Balasubramanian, Škare tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda iqtisodiy o'sishning kambag'allik darajasiga ta'siri tahlil qilingan¹¹.

Yoqubova, Ablyakova, Umurzakov, Kulmatov, Yuldoshev, Erkinova O'zbekistonda kambag'allik darajasini hisoblash bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan¹², Zokirova, Khasanov, Akhmadjanov, Toshmurotov, Alibekova, Mirzayev, Mukhitdinov esa mamlakat uy xo'jaliklarining daromadlarini o'rganishgan¹³. Arabov, Nasimov, Rakhmonov, Kurbanov, Baratov tomonidan aholiga ijtimoiy yordam masalalari tadqiq qiligan¹⁴.

¹⁰ Lustig, Nora, ed. *Commitment to equity handbook: Estimating the impact of fiscal policy on inequality and poverty*. Brookings Institution Press, 2023; Enami, Ali, Nora Lustig, and Alireza Taqdiri. "Fiscal policy, inequality, and poverty in Iran: assessing the impact and effectiveness of taxes and transfers". *Middle East development journal* 11.1 (2019): 49-74; Destek, M.A.; Sinha, A.; Sarkodie, S.A. The relationship between financial development and income inequality in Turkey. *J. Econ. Struct.* 2020, 9, 11.; Anderson, Edward, et al. "Does government spending affect income poverty? A meta-regression analysis." *World Development* 103 (2018): 60-71.; Tanjung, Ahmad Albar, et al. "The impact of monetary and fiscal policy on poverty in Indonesia." (2019).; Song, Junxiu, et al. "Fiscal decentralization and economic growth revisited: an empirical analysis of poverty governance." *Environmental Science and Pollution Research* 29.19 (2022): 28020-28030; Jouini, Nizar, et al. "Fiscal policy, income redistribution, and poverty reduction: Evidence from Tunisia." *Review of Income and Wealth* 64 (2018): S225-S248; de Mendonça, Helder Ferreira, and Adriana Cabrera Baca. "Fiscal opacity and reduction of income inequality through taxation: Effects on economic growth." *The Quarterly Review of Economics and Finance* 83 (2022): 69-82.

¹¹ Razmi, Mohammad Javad, Seyed Mohammad Javad Razmi, and Seyed Saeed Malek Sadati. "The role of institutional conditions in the impact of economic growth on poverty." *International Journal of Business and Economic Sciences Applied Research* 14 (2021): 78-85; Garza-Rodriguez, Jorge. "Poverty and economic growth in Mexico." *Social Sciences* 7.10 (2018): 183.; Balasubramanian, Pooja, Francesco Burchi, and Daniele Malerba. "Does economic growth reduce multidimensional poverty? Evidence from low-and middle-income countries." *World Development* 161 (2023): 106119.; Škare, Marinko, and Romina Pržiklas Družeta. "Poverty and economic growth: a review." *Technological and Economic development of Economy* 22.1 (2016): 156-175

¹² Yoqubova S.Yu. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash (O'zbekiston Respublikasi misolida). Toshkent, 1994, 142-bet; Абякова Ш.А. Совершенствование системы социальной защиты населения Республики Узбекистан в условиях перехода к рыночным отношениям. Ташкент, 1995, 285-стр.; Умурзаков Б.Х. Совершенствование системы социальной защиты нетрудоспособных слоев населения в условиях формирования рыночной экономики. Ташкент, 1995; Kulmatov Ch.A. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilash (Surxondaryo viloyati misolida). Toshkent, 1994, 150-bet; Yuldoshev X.A. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida qishloq aholisining sotsial-iqtisodiy manfaatlarini himoyalash asoslari (Samarqand viloyati misolida). Toshkent, 1995; Эркинова Ф. Формирование механизма управления социальной защиты населения в условиях перехода к рыночной экономике. Ташкент, 1998.

¹³ Zokirova N. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini sotsial himoya qilish tizimini takomillashirish (O'zbekiston Respublikasi oilalari misolida). Toshkent, 2001; Xasanov R. Shakllanayotgan bozor munosabatlari tizimida daromadlar va ularning tabaqalanishi. Toshkent 2005.; Akhmadjanov X. O'zbekiston xonadonlari moliya resurslarini shakllanishi va ishlatilishi. Toshkent 2006.; Toshmurotov A.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash. Toshkent 2006, 140-bet; Alibekova S. "Формирование и факторы роста уровня жизни населения Узбекистана". Ташкент 2003.; Мирзаев Ш. Пути усиления адресности социальной защиты населения в условиях переходной экономики (на материалах Узбекистана). Ташкент 2006; Muxitdinov X. Aholi turmush darajasini oshirish va hududlar ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini modellashtirish. Toshkent 2009.

¹⁴ Arabov N.U. O'zbekiston Respublikasida mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish samaradorligini oshirish. Monografiya. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2017y. -336 b.; Nasimov D.A. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida ish bilan bandlik egiluvchanligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. - T.: "Fan va texnologiya", 2018. -260b.; Rakhmonov D.A. Kambag'allik – makroiqtisodiy barqarorlikning dolzarb muammosi / "Yangi O'zbekiston iqtisodiyotining makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash: muammolar, tahlillar va natijalar" nomli onlayn ilmiy masofaviy konferentsiyasi tezislari to'plami, aprel 30, 2020, 14-33 b.; Kurbonov S. P. Aholining unumli va mahsuldor bandligini oshirish asosida kambag'allikni qisqartirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktorini (PhD) olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. T: 2022, 68-bet; Baratov S.N. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda budjet siyosati yo'nalishlaridan foydalanish ustuvorliklari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktorini (PhD) olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. T: 2024, 57-bet.

Kambag'allik mamlakatimizda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlar kompleks choralarni o'z ichiga qamrab olishi zarur. Kambag'allikka ta'sir etuvchi omillarni ajratib ko'rsatish va uni bartaraf etish yo'llarini topish muhimdir. O'tkazilgan tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, kambag'allik iqtisodiy jihatlardan ham o'rganila boshlandi, O'zbekiston fiskal siyosatining kambag'allik darajasiga ta'siri hali chuqur o'rganilmagan. Ushbu bo'shliqni to'ldirish uchun mazkur tadqiqot olib borildi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "O'zbekiston Iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazida IL21101893-sonli "Kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda kambag'allik darajasini tahlil qilish, kambag'allik darajasiga ta'sir qiluvchi fiskal va iqtisodiy omillarni aniqlash, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

fiskal siyosatning kambag'allikka ta'sirining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish;

O'zbekiston hududlarini kambag'allik darajasi bo'yicha ekonometrik uslub yordamida tabaqalashtirish;

fiskal va iqtisodiy indikatorlarning kambag'allik darajasiga ta'sirini o'rganish uchun ekonometrik modellar tuzish;

O'zbekistonda kambag'allik darajasini 2030-yilgacha prognoz qiymatini aniqlash;

raqamli texnologiyalardan kambag'allikni hisoblash va qisqartirishda foydalanish bo'yicha takliflar tayyorlash;

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda fiskal siyosatdan foydalanishni takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishdagi fiskal siyosat yo'nalishlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida O'zbekistonda fiskal siyosat yo'nalishlarining kambag'allikni qisqartirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada umumlashtirish, korrelyatsion tahlil, ekonometrik guruhlash tahlili, panel ma'lumotlari tahlili, principal component analysis (PCA) hamda vector autoregressive analysis (VAR) singari usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston hududlarining sifat mezonlari asosida kambag'allik darajasini yuqori [19,3-34,4], o'rta [11,1-19,22] hamda past [0-10,9] chegaralarini tavsiflovchi baholash usuli taklif etilgan;

hududlarda Random Effects modeli asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, aholi bandlik darajasini oshirish va mehnatga haq

to'lashning hamda pensiya va nafaqalarning eng kam miqdorini oshirish kambag'allikni qisqartirishdagi ijobiy ta'siri asoslangan;

O'zbekistonda ehtiyojmand aholining ijtimoiy nafaqa qamrovi va o'rtacha nafaqa miqdorini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirish mexanizmi taklif qilingan;

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha kambag'allik darajasi o'zgarishini fiskal instrumentlar ta'siri asosida 2030-yilga qadar ko'p omilli solishtirma prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekistonda kambag'allik mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar davriy va mavzuiy asosda tasniflangan;

O'zbekiston hududlarini kambag'allik darajasi bo'yicha ekonometrik guruhlash mezonlari orqali davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy va fiskal siyosatlarining manzilligini ta'minlash asoslangan;

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda fiskal siyosat instrumentlarini inobatga olish ekonometrik modellar yordamida asoslangan;

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda fiskal instrumentlar bilan bir qatorda bandlik, kichik biznes va tadbirkorlik hamda nafaqa tizimi elementlarini inobatga olinishi zarurligi asoslangan;

O'zbekistonda kambag'allik darajasini 2030-yilgacha prognozlash amalga oshirilgan;

kambag'allikni hisoblashda ishlatiladigan ma'lumotlar ikki guruhga ajratilgan: Remote Sensing data hamda Field data.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot olib borish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat Statistika agentligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy ma'lumotlari va Jahon Bankining moliyaviy, iqtisodiy hamda ijtimoiy siyosatga doir rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanilganligi, me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mavzuga tegishli qismlari atroflicha ko'rib chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasining ilmiy ahamiyatini O'zbekistonlik tadqiqotchilarning kambag'allik sohasidagi ishlarini guruhlash, kambag'allik darajasi bo'yicha O'zbekiston hududlarini toifalarga ajratishning ilmiy asoslangan mezonlarini topish, kambag'allik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bilan izohlash mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va tavsiyalardan respublikada kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan dastur va strategiyalarda foydalanish mumkinligi bilan izohlash mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda fiskal siyosatning ustuvorliklaridan foydalanishni takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O'zbekiston hududlarining sifat mezonlari asosida kambag'allik darajasini yuqori [19,3-34,4], o'rta [11,1-19,22] hamda past [0-10,9] chegaralarini tavsiflovchi baholash usuli taklifi O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan hududlarda kambag'allik darajasining dinamikasini

aniqlash hamda kambag'al aholining balansini shakllantirishda foydalanilgan (Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 20-iyundagi 01/00-03/28-6099-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF–37-sonli Farmoni 1-ilovasining 27-maqсад 76-bandi ijrosini ta'minlashga imkon yaratilgan;

Hududlarda Random Effects modeli asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, aholi bandlik darajasini oshirish va mehnatga haq to'lash hamda pensiya va nafaqalarning eng kam miqdorini oshirishning kambag'allikni qisqartirishdagi ijobiy ta'siri bo'yicha takliflar O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi faoliyatida foydalanilgan (Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 20-iyundagi 01/00-03/28-6099-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilik natijasi asosida O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini 1 foizga oshirish orqali hududlarda kambag'allik darajasi 0,26 foizga qisqarishi, aholi bandlik darajasini 1 foizga oshirish orqali hududlarda kambag'allik darajasi 0,24 foizga qisqarishi, mehnatga haq to'lashning hamda pensiya va nafaqalarning eng kam miqdorini 1 foizga oshirish orqali hududlarda kambag'allik darajasini mos ravishda 0,04 hamda 0,21 foizlarga qisqarishi asoslangan hamda kambag'allik darajasini qisqartirish bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish imkonini bergan;

O'zbekistonda ehtiyojmand aholining ijtimoiy nafaqa qamrovi va o'rtacha nafaqa miqdorini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirish mexanizmi taklifi O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF–37-sonli Farmoni 1-ilovasining 52-bandi ijrosini ta'minlash uchun foydalanilgan (Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 20-iyundagi 01/00-03/28-6099-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning joriy qilinishi orqali O'zbekistonda ehtiyojmand aholining ijtimoiy nafaqa qamrovini va o'rtacha nafaqa miqdorini o'n foizga oshirish orqali hududlarda kambag'allik darajasini 2,16 foizga qisqarishi asoslandi hamda mahalladagi har bir ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini to'liq ijtimoiy himoya qilish tizimi orqali qamrab olishni ta'minlashga xizmat qildi;

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha kambag'allik darajasi o'zgarishini fiskal instrumentlar ta'siri asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan ko'p omilli solishtirma prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan foydalanilgan (Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 20-iyundagi 01/00-03/28-6099-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilik natijasida 2030-yilga qadar O'zbekistonda 95 foizlik ishonchlilik darajasida kambag'allik darajasi optimal prognozga ko'ra 5,26 foizni tashkil qilishi aniqlandi va ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish dasturining istiqboldagi ko'rsatkichlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, Scopus bazasida indekslangan 4 ta xalqaro konferensiyada, 1 ta xalqaro hamda 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, Web of Science va Scopus bazalarida indekslangan jurnallarda 2 ta maqola hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan mahalliy jurnallarda 3 ta maqola nashr etilgan. Ilmiy-amaliy konferensiyalarda 7 ta maqolalar va ma'ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 132 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy etilishi, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Kambag'allikni qisqartirishda fiskal siyosat ta'sirining nazariy ilmiy metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida kambag'allikning ta'rifi va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri, fiskal siyosatning kambag'allikka ta'siri, xorijiy mamlakatlarning kambag'allikni kamaytirish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlari o'rganilgan.

Dunyoda kambag'allik mavzusi doimo dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi va bu hodisani turli jihatlaridan o'rganish uchun ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng kambag'allik mavzusida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarda mamlakat iqtisodiyoti sotsialistik munosabatlardan bozor munosabatlariga o'tayotgan bir paytda kambag'allarni qo'llab-quvvatlash choralari aks ettirilgan, lekin yigirma birinchi asrning birinchi choragida bu kabi izlanishlar to'xtab qolgan. Bu sohadagi vaziyat mustaqil O'zbekistonning ikkinchi prezidenti – Sh. Mirziyoyev mamlakatda kambag'allik mavjud ekanligini rasman tan olgani va kambag'allik darajasini pasaytirish va kam ta'minlanganlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qancha farmonlarni imzolagandan keyin o'zgardi va kambag'allik bo'yicha turli tadqiqotlar olib borilishi boshlandi. Dissertatsiya ishida kambag'allik mavzusida shu vaqtgacha olib borilgan tadqiqotlar to'plangan va guruhlangan. O'zbekistonda kambag'allik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning turkumlanishini 1-rasmda ko'rish mumkin.

Fiskal siyosat mamlakatning asosiy siyosatlaridan biri bo'lib, fiskal instrumentlar yordamida davlat butun iqtisodiyotni boshqarishi mumkin. Shu bilan birgalikda, fiskal siyosatni yuritish orqali davlat bozorlar va milliy daromadning taqsimlanishini ham kuzatishi mumkin. Moliyaviy siyosatning mohiyati va yo'nalishlari davlat budjetida aks ettirilgan. Davlat budjeti mamlakatning fiskal siyosatini yuritishning asosidir.



1-rasm. O‘zbekistonda kambag‘allik mavzusida olib borilgan tadqiqotlarning davrlar bo‘yicha turkumlanishi¹⁵

Kambag‘allikni qisqartirishda fiskal siyosatning ahamiyati katta. Mamlakat fiskal siyosatining kambag‘allikka ta’siri bo‘yicha dunyoda ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan va ularni uchta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh tadqiqotchilari soliq tizimi va soliqqa tortishning kambag‘allik darajasiga ta’sirini tahlil qilishgan bo‘lishsa, ikkinchi guruh tadqiqotchilari esa davlat xarajatlariga e’tibor qaratishgan. Uchinchi guruh tadqiqotchilari davlat daromadlari va xarajatlarini kambag‘allik darajasiga birgalikdagi ta’sirini o‘rganishgan.



Kambag‘allikni qisqartirishda xorij tajribasini o‘rganish ham katta ahamiyatga ega. Xususan, bu borada Xitoy tajribasi e’tiborga molik. 1978-yildan 2021-yilgacha Xitoyda 800 millionga yaqin kishi kambag‘allikdan chiqarilgan. Xitoyda ijtimoiy siyosat qamrovini oshirish iqtisodiy o‘shirishni ta’minlash va inklyuzivlikni oshirishga xizmat qilgan. Xitoyning ijtimoiy himoya siyosati ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy yordam, ijtimoiy nafaqa va ijtimoiy davolanishlarni o‘z ichiga oladi.

Hindistonda kambag‘allikni qisqartirishda kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga ahamiyat qaratilgan. Buning uchun Small Industries Development Bank of India va National Bank for Agricultural and Rural Development banklari tashkil qilingan. Bundan tashqari, kambag‘al aholining moliyaviy savodxonligini oshirish uchun banklar tomonidan yordam dasturlari ham joriy qilingan. Mazkur olib borilgan choralar tufayli Hindistonda kambag‘allar soni 9 yil ichida (2013-2022) 248 millionga kamaygan hamda kambag‘al aholi soni 29 foizdan 11 foizga tushgan.

Janubiy Koreyada kambag‘allikni qisqartirish “Unumli farovonlik” deb nomlanuvchi modelga tayanib u barcha Koreya fuqarolarining turmush darajasini yaxshilash, shu bilan birga ijtimoiy rivojlanishni rag‘batlantirish va milliy boylikni teng taqsimlashga qaratilgan. Hukumat eng kam ish haqini belgilagan va tibbiy sug‘urta qamrovini kengaytirgan. Bundan tashqari, daromad oladigan har bir kishi uchun nafaqa ta’minotini kafolatlagan.

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

Dissertatsiyaning “Fiskal siyosatning hamda iqtisodiy indikatorlarning kambag‘allik darajasiga ta’sirining tahlili” nomli ikkinchi bobida guruh modeli asosida mamlakat hududlari kambag‘allik darajasi bo‘yicha guruhlangan, so‘ng panel ma’lumotlari tahlili yordamida moliyaviy va iqtisodiy indikatorlarning kambag‘allikka ta’siri tahlil qilingan hamda vaqtli qatorlar modeli orqali kambag‘allik darajasi 2030-yilgacha prognoz qilingan.



2-rasm. O‘zbekiston hududlari bo‘yicha kambag‘allik darajasi dinamikasi (2010-2022 yy.)¹⁶

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

2-rasmda O‘zbekistonning 14 ta hududlari bo‘yicha 2010–2022-yillar davomidagi kambag‘allik darajasi dinamikasi keltirilgan. Berilgan grafiklardan ko‘rish mumkinki, barcha hududlar turli trendlarni namoyon qilgan, boshlang‘ich nuqtalari ham turlicha bo‘lgan. Shu turfalik bilan birgalikda barcha hududlarni umumlashtirgan jihat – bu 2021-yildan boshlangan anomal o‘zgarishlar. Kambag‘allik darajasidagi ushbu anomal o‘zgarishlarning sababi mamlakatda 2021-yildan boshlab kambag‘allikni hisoblash metodologiyasidagi o‘zgarishdir.

2019-yildan 2021-yilgacha Andijon, Farg‘ona, Namangan, Samarqand va Xorazm viloyatlari hamda Toshkent shahrining kambag‘allik darajasida o‘shir kuzatilgan. Agar 2019-yildagi kambag‘allik darajasini 2018-yil bilan taqqoslasa kambag‘allik darajasi Andijonda 1.5 baravarga (7.9 %dan 11.9 %gacha), Farg‘onada 6.6 %dan 13.5 %gacha, Namanganda 14 %dan 15.2 %gacha, Samarqandda 8.6 %dan 9.8 %gacha, Xorazmda 12.5 %dan 13 %gacha hamda Toshkent shahrida 0.4 %dan 1.9 %gacha o‘sganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, quyidagi hududlarda kuzatuv davrining so‘ngida davrning boshlang‘ich nuqtasiga qaraganda yuqoriroq kambag‘allik darajasi qayd etilgan: Andijon (16.3 % va 17.4 %), Farg‘ona (10.2 % va 11.6 %), Toshkent (12.5 % va 14.4 %), Toshkent sh. (2.6 % va 8.5 %).

O‘zbekiston hududlari kambag‘allik darajasi bo‘yicha bir-biridan farq qiladi, shuning uchun hududlarni kambag‘allik darajasi bo‘yicha toifalarga bo‘lish uchun guruh tahlili o‘tkazildi. Buning uchun 2010-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan davrda 14 ta hududda kambag‘allik darajasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar to‘plangan va hududlar uch toifaga bo‘lingan:

- kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan hududlar;
- kambag‘allik darajasi o‘rtacha bo‘lgan hududlar;
- kambag‘allik darajasi quyi bo‘lgan hududlar.

Guruh tahlili natijasida jami kuzatuvlar soni 182 tani tashkil etishini ko‘rish mumkin (1-jadval). Ushbu kuzatuvlarning deyarli chorak qismi “Kambag‘allik darajasi yuqori” guruhiga tegishli. Biroq, eng ko‘p kuzatuvlar (83) “Kambag‘allik darajasi o‘rtacha” guruhida joylashgan. Kuzatuvlarning uchdan bir qismi esa “Kambag‘allik darajasi quyi” deb nomlangan uchinchi guruhdan o‘rin olgan.

1-jadval

Kambag‘allik darajasi bo‘yicha shakllantirilgan guruhlarining ta‘rifi¹⁷

Guruh	Chastotasi	Foiz	Kumulyativ
1. “Kambag‘allik darajasi yuqori”	43	23.63	23.63
2. “Kambag‘allik darajasi o‘rtacha”	83	45.60	69.23
3. “Kambag‘allik darajasi quyi”	56	30.77	100.00
Jami	182	100.00	

Guruhlarining chegaralari 2-jadvalda keltirilgan. “Kambag‘allik darajasi yuqori” guruhning minimal chegarasi 19,3 % va maksimal chegarasi 34,337 5%ni

¹⁷ Muallif tomonidan hisoblangan natijalar.

tashkil qiladi. Agar kambag'allik darajasi 11,17921 %dan 19,21279 %gacha bo'lsa, hudud "Kambag'allik darajasi o'rtacha" guruhiga kiritilgan. Agar hududda kambag'allik darajasi 10,9 %dan past bo'lsa, hudud "Kambag'allik darajasi quyi" bo'lgan guruhdan joy olgan.

Guruhlar bo'yicha hududlarning rivojlanishini ko'rish uchun quyidagi yillar tanlangan: 2010, 2020, 2021 va 2023. Kuzatuvlarning boshlang'ich nuqtasi 2010-yil va oxirgi nuqtasi 2023-yil. 2020-yil kambag'allik darajasi kuniga 2100 kilokaloriya iste'moli asosida hisoblangan oxirgi yil sifatida tanlandi, shuningdek, bu yilda COVID-19 pandemiyasi sodir bo'ldi. 2021-yil kambag'allik darajasini hisoblashning yangi metodologiyasining birinchi yili sifatida tanlandi (3-rasm).

2-jadval

Kambag'allik darajasi bo'yicha shakllantirilgan guruhlarining chegaralari¹⁸

Guruh	Minimal chegara	O'rtacha qiymat	Maksimal chegara
1. "Kambag'allik darajasi yuqori"	19.3	23.8329	34.3375
2. "Kambag'allik darajasi o'rtacha"	11.17921	14.60287	19.21279
3. "Kambag'allik darajasi quyi"	0,4	7.24193	10.9
Jami	0,4	14.51869	34.3375


O'zbekistonda fiskal va iqtisodiy indikatorlarning kambag'allik darajasiga ta'sirini o'rganish uchun ekonometrik modellar tuzish dissertatsiyaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun panel ma'lumotlari tahlili amalga oshirildi. Panel ma'lumotlari tahlilini amalga oshirish uchun 2010–2020-yillar davomidagi ma'lumotlar 14 ta hudud bo'ylab yig'ildi, so'ng, uchta model tuzildi: Fixed Effects Model, Random Effects Model hamda Pooled Model. Tuzilgan modellardan optimali Hausman testi orqali aniqlandi (7-jadval).

Ekonometrik modellarni tuzishda quyidagi o'zgaruvchilardan foydalanilgan:

Kam ta'minlangan aholi ulushi (kambag'allik darajasi). Bu bog'liq o'zgaruvchidir. O'lchov birligi foizda. Ushbu ko'rsatkich O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat Statistika agentligi tomonidan Jahon banki tavsiyalari asosida kuniga 2100 kilokaloriya iste'moli bo'yicha hisoblab chiqilgan. Kambag'allik darajasini hisoblashning ushbu metodologiyasi 2000-yildan 2020-yilgacha amal qilgan. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 544-son qaroriga asosan 2021-yildan boshlab metodologiya o'zgardi va aholi daromadlarining eng kam iste'mol xarajatlari (EIX) miqdori orqali hisoblab chiqila boshlandi. Kambag'allikni hisoblash 2000-yilda boshlanganligi sababli, 2000-yil ushbu tahlilning boshlang'ich nuqtasi bo'ldi, tahlilning oxirgi yili esa 2020-yil bo'ldi. Buning sababi 2021-yildan boshlab kambag'allikni hisoblash

¹⁸ Muallif tomonidan hisoblangan natijalar.

metodologiyasining o'zgartirilgani bo'ldi. 2021- va 2022-yildagi kambag'allik darajasini modelda qo'llash ishonchsiz natijalarga olib keladi.



3-rasm. O'zbekistonda kambag'allik darajasining hududlar bo'yicha guruhlanishi

Fiskal desentralizatsiya indeksi – tadqiqotchi tomonidan O'zbekiston hududlari bo'yicha tuzilgan indeks. Fiskal desentralizatsiya indeksini hududlar uchun hisoblashda Shibosho metodologiyasidan foydalanildi. Indeksni tuzishda mahalliy budjetlarning ikkita ko'rsatkichlaridan foydalanildi: 1) mahalliy budjet soliq tushumlarining jami umumdavlat soliq tushumlaridagi ulushi; 2) mahalliy budjet xarajatlarining jami umumdavlat budjet xarajatlaridagi ulushi.

Hududlardagi aholi sonining o'sish sur'ati – bu demografik vaziyatni nazorat qilish uchun olingan nazorat o'zgaruvchisi. O'lchov birligi – foiz. Bu o'zgaruvchi Kibirige¹⁹, Yip²⁰ va Adhika²¹ tadqiqotlariga asoslangan holda modelga kiritilgan.

Yalpi hududiy mahsulot jon boshiga (YaHM) – bu o'zgaruvchi hududlarning iqtisodiy o'sishi kambag'allik darajasini pasaytiruvchi xarakterga ega yoki yo'qligini tahlil qilish uchun modelga kiritilgan. Logarifmlangan.

¹⁹ Kibirige, Joachim S. "Population growth, poverty and health." *Social Science & Medicine* 45.2 (1997): 247-259.

²⁰ Yip, Paul SF, et al. "Assessing the impact of population dynamics on poverty measures: A decomposition analysis." *Social Indicators Research* 134 (2017): 531-545.

²¹ Adhika, Rismana, and Sri Ulfa Sentosa. "Could Economic Growth Moderate Population, Education and Unemployment to Poverty in Indonesia?." *The Fifth Padang International Conference On Economics Education, Economics, Business and Management, Accounting and Entrepreneurship (PICEEBA-5 2020)*. Atlantis Press, 2020.

Korrelyatsiya matritsasi²²

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)	(7)	(8)	(9)
(1) Kambag'allik darajasi	1.00								
(2) Fiskal desentralizatsiya indeksi	-0.27 (0.01)	1.00							
(3) Aholi sonining o'sish sur'ati	-0.27 (0.00)	0.67 (0.00)	1.00						
(4) COVID19	-0.13 (0.11)	-0.32 (0.00)	0.08 (0.15)	1.00					
(5) YaHM	-0.56 (0.00)	-0.29 (0.00)	0.13 (0.02)	0.32 (0.00)	1.00				
(6) O'rtacha nafaqa miqdori	-0.42 (0.00)	-0.41 (0.00)	0.17 (0.00)	0.29 (0.00)	0.98 (0.00)	1.00			
(7) Minimal nafaqa miqdori	-0.35 (0.00)	-0.46 (0.00)	0.21 (0.00)	0.30 (0.00)	0.96 (0.00)	0.99 (0.00)	1.00		
(8) Nafaqa oluvchi insonlarning soni	-0.41 (0.00)	0.65 (0.00)	0.96 (0.00)	0.10 (0.10)	0.04 (0.47)	0.05 (0.39)	0.07 (0.21)	1.00	
(9) Minimal ish haqi	-0.32 (0.00)	-0.39 (0.00)	0.21 (0.00)	0.40 (0.00)	0.96 (0.00)	0.98 (0.00)	0.99 (0.00)	0.09 (0.14)	1.00

²² Muallif tomonidan hisoblangan natijalar.

COVID-19 – dummy o‘zgaruvchi bo‘lib, u modelda COVID-19 pandemiyasining ta‘sirini aks ettirishga yordam beradi. Ushbu pandemiya O‘zbekistonda 2020-yilda boshlangani bois bu yil 1 deb, undan oldingi yillar esa 0 deb kodlangan.

Bandlik darajasi – O‘zbekiston hududlaridagi bandlik darajasi (foizda).

Kichik biznesning YaHMDagi ulushi – bu o‘zgaruvchi hududlardagi kichik biznesning ulushi kambag‘allik darajasiga ta‘sir qilish yoki qilmasligini aniqlash uchun modelga kiritilgan (foizda).

Nafaqa oluvchi insonlarning soni – hududlardagi nafaqa oluvchi insonlarning soni. Logarifmlangan.

O‘rtacha nafaqa miqdori – hududlardagi o‘rtacha nafaqa miqdori. Logarifmlangan.

Minimal nafaqa miqdori – hududlardagi minimal nafaqa miqdori. Logarifmlangan.

Panel ma‘lumotlari tahlilini amalga oshirishdan oldin o‘zgaruvchilar orasida korrelyatsion munosabat mavjud ekanligini aniqlash uchun korrelyatsiya tahlili amalga oshirildi. Korrelyatsiya tahlili natijalari 3-jadvalda aks etgan. Korrelyatsiya tahlili natijasidan o‘zgaruvchilar orasida statistik ahamiyatga ega munosabatlar mavjud ekanligini ko‘rish mumkin.

4-jadval

Fiskal desentralizatsiya indeksining kambag‘allik darajasiga ta‘siri (Random Effects Model)²³

Kambag‘allik darajasi	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf Interval]	Sig
Fiskal desentralizatsiya indeksi	-4.58	1.986	-2.31	.021	-8.472 - .688	**
Aholi sonining o‘shish sur‘ati	3.423	1.206	2.84	.005	1.059 5.787	***
COVID_19	-.746	.846	-0.88	.378	-2.405 .913	
YaHM	-9.235	1.571	-5.88	0	-12.315 -6.155	***
Constant	153.173	24.378	6.28	0	105.394 200.953	***
Mean dependent var		12.779	SD dependent var			6.014
Overall r-squared		0.443	Number of obs			98
Chi-square		41.147	Prob > chi2			0.000
R-squared within		0.274	R-squared between			0.480
*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$						

So‘ng, panel ma‘lumoti tahlili amalga oshirildi. Buning uchun avval bitta model topilib, so‘ng unga bittadan o‘rganiladigan o‘zgaruvchilar qo‘shildi. 4-jadvalda bazaviy model keltirilgan. Bunda Random Effects model tuzilgan. Tuzilgan model bir foizlik darajada statistik ahamiyatga ega. Ushbu model natijalaridan xulosa qilish mumkin-ki, fiskal desentralizatsiya indeksining bir birlikka oshishi kambag‘allik darajasini 4.58 foizga tushishiga olib kelar ekan va

²³ Muallif tomonidan hisoblangan natijalar.

ushbu natija besh foizlik darajada statistik ahamiyatga ega. Bundan tashqari, yalpi hududiy mahsulotning jon boshiga ortishi ham kambag'allik darajasining qisqarishiga olib kelar ekan. Yanada aniqroq aytiladigan bo'lsa, yalpi hududiy mahsulotning jon boshiga o'n foizga ortishi kambag'allik darajasini 0.423 foizga tushishiga olib kelar ekan va ushbu natija bir foizlik darajada statistik ahamiyatga ega. Yuqorida keltirilgan natijalarga asoslangan holda mahalliy budjetlarga o'z daromadlari va xarajatlarini boshqarishda erkinlik berilishi kambag'allik darajasini kamaytirishga sabab bo'lishi haqida xulosa qilish mumkin.

5-jadvalda bandlik darajasi va kichik biznes ulushining kambag'allik darajasiga ta'siri o'rganilgan. Buning uchun 1-modelga bittadan mazkur o'zgaruvchilar qo'shilgan. Tuzilgan modellar bir foizlik statistik ahamiyatga ega hamda Random Effects Model (REM) uslubida tuzilgan. 2-modelda bandlik darajasining kambag'allik darajasiga ta'siri aks etgan. Olingan natija bandlik darajasining bir foizga oshishi kambag'allik darajasini 0.24 foizga kamayishiga olib kelishini ko'rsatgan va mazkur ta'sir bir foizlik statistik ahamiyatga ega. 3-modelda esa kichik biznes ulushining oshishi kambag'allik darajasiga qanday ta'sir qilishi o'rganilgan. Model natijalariga binoan kichik biznes ulushining bir foizga oshishi kambag'allik darajasini 0.26 foizga qisqartirishi aniqlangan. Mazkur tuzilgan modellarning yana bir ahamiyatga molik jihati, barcha modellarda fiskal desentralizatsiya indeksi kambag'allikka negativ ta'sir qilishi aniqlangan va mazkur natija statistik ahamiyatga ega bo'lgan.

5-jadval

Bandlik darajasi va kichik biznesning kambag'allik darajasiga ta'siri²⁴

O'zgaruvchi	1-model (REM)	2-model (REM)	3- model (REM)
Fiskal desentralizatsiya indeksi	-4.580119**	-3.4557599*	-7.132505***
Aholi sonining o'sish sur'ati	3.4229997***	2.8950318**	2.7451147**
COVID_19	-0.746	-1.194	-1.171
YaHM	-9.2349933***	-7.9858774***	-13.986507***
Bandlik darajasi		-0.23591546**	
Kichik biznes			-0.26134797***
cons	153.17324***	150.16465***	248.19202***

legend: * p<.1; ** p<.05; *** p<.01

So'ng, 6-jadvalda minimal ish haqi hamda nafaqa tizimi elementlarining kambag'allikka ta'siri o'rganilgan. Barcha tuzilgan modellar bir foizlik darajada statistik ahamiyatga ega. 4-modelda Random Effects Modeli yordamida minimal ish haqining kambag'allik darajasiga ta'siri o'rganilgan. Tahlil natijasiga binoan minimal ish haqining o'n foizga oshishi kambag'allik darajasini 0.434 foizga kamayishiga olib kelishi aniqlangan.

Nafaqa tizimi elementlaridan esa nafaqa oluvchi insonlarning soni eng kuchli ta'sir qiluvchi omil ekanligi Fixed Effects Model yordamida aniqlangan (5-model). Nafaqa oluvchi insonlar sonining 10 foizga oshishi kambag'allik darajasini 2.16 foizga kamaytirishi aniqlangan.

²⁴ Muallif tomonidan hisoblangan natijalar.

Minimal ish haqi va nafaqa tizimi elementlarini kambag'allik darajasiga ta'siri²⁵

O'zgaruvchi	4-model (REM)	5-model_ (FEM)	6- model (REM)	7-model (REM)
Fiskal desentralizatsiya indeksi	-3.4796034*	-8.2476186***	-9.3062741***	-5.7203783**
Aholi sonining o'sish sur'ati	2.8349933**	1.284	3.153791***	2.1121818*
COVID_19	1.786	0.272	0.227	-1.346
YaHM	0.19129378*	0.084	0.052	0.040
Minimal ish haqi	-4.3365884***			
Nafaqa oluvchi insonlarning soni		-21.58562***		
O'rtacha nafaqa miqdori			-8.9837211***	
Minimal nafaqa miqdori				-21.392928***
cons	60.103835***	280.09111***	130.09134***	278.12012***

legend: * p<.1; ** p<.05; *** p<.01

Bundan tashqari, minimal nafaqa miqdori ham kambag'allik darajasiga kuchli ta'sir qilishi ham Random Effects Model yordamida aniqlangan (7-model). Agar minimal nafaqa miqdori 10 foizga ohsa kambag'allik darajasi 2.14 foizga kamayishi aniqlangan va mazkur natija bir foizlik darajada statistik ahamiyatga ega. O'rtacha nafaqa miqdorining 10 foizga oshishi esa kambag'allik darajasini 0.898 foizga kamayishiga hissa qo'shishi Random Effects Modeli yordamida aniqlangan va mazkur natija ham statistik jihatdan bir foizlik darajada ahamiyatga ega (6-model).

Hausman testi natijalari²⁶

Model	1-model	2-model	3-model	4-model	5-model	6-model	7-model
Prob>chi2	0.7571	0.1065	0.5375	0.7137	0.0385	0.9958	0.7890
Xulosa	RE	RE	RE	RE	FE	RE	RE

7-jadvalda Hausman testi natijalari berilgan. Hausman testi tahlili Fixed Effects Model va Random Effects Model orasida statistik jihatdan to'g'ri modelni aniqlashga yordam beradi. Agar Hausman testida ehtimollik darajasi (prob>chi2) 0.05 dan kam bo'lsa Fixed Effects Model tanlanadi, 0.05 dan yuqori bo'ladigan bo'lsa Random Effects Model tanlanadi. 7-jadvaldan ko'rish mumkinki, faqatgina 5-modelda Fixed Effects Model ishlatilgan, qolgan barcha modellarda esa Random Effects Modeli qo'llanilgan.

²⁵ Muallif tomonidan hisoblangan natijalar.

²⁶ Muallif tomonidan hisoblangan natijalar.

Tavsifiy statistika²⁷

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
Kambag'allik darajasi	23	18.216	6.21	11	27.5
YaIM	23	6.288	1.828	1.996	9.473
Soliqlar	23	19.457	4.304	11.697	28.5
Kichik biznes ulushi	23	51.087	11.798	31	66.8

